



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 275-280 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI



**M.X.Abdullaeva** – TDIU katta o'qituvchisi

**B.Alisherxonov** – TDIU 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishning zarurati va ahamiyati, yashil iqtisodiyotni tuzilishi va uning muhim hususiyatlari, mamlakatlarni rivojlantirishda, iqtisodiy o'sishni barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish uglerod chiqindilarini kamaytirish, energiya tejamkorligini ta'minlash masalalariga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlashda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning energiya sig'imligi tahlil qilingan. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi, uning mohiyati ochib berilgan, isrofgar biznes modelidan ekologik toza modelga o'tish imkonini beruvchi "yashil" texnologiyalarni joriy etish muhimligi asoslangan. Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda keng tarqalgan "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, energiya tejamkorligi, energiya zichligi, ekologik o'zgarishlar, iqlim o'zgarishi, yashil moliyalash, yashil energiya bank-moliya mahsullari, yashil kreditlar.

**Аннотация:** В статье рассматривается необходимость и важность перехода к зеленой экономике, структура зеленой экономики и ее важные особенности, а также ее значение в развитии стран и обеспечении устойчивости экономического роста. Подробно рассматриваются вопросы снижения выбросов углерода и обеспечения энергоэффективности за счет производства возобновляемых источников энергии. Проанализирован энергетический потенциал экономически развитых стран по переходу к «зеленой» экономике и обеспечению энергоэффективности в промышленных отраслях. Раскрыта суть концепции «зеленой» экономики, которая базируется на важности внедрения «зеленых» технологий, позволяющих перейти от расточительной модели ведения бизнеса к экологически чистой. Определены основные направления развития «зеленой» экономики, получившей распространение в большинстве стран мира, в том числе и в Узбекистане.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, энергоэффективность, плотность энергии, изменения окружающей среды, изменение климата, зеленые финансы, банковские и финансовые продукты в сфере зеленой энергетики, зеленые кредиты.

**Abstract:** The article discusses the need and importance of transition to a green economy, the structure of the green economy and its important features, as well as its significance in the development of countries and ensuring sustainable economic growth. The issues of reducing carbon emissions and ensuring energy efficiency through the production of renewable energy sources are considered in detail. The energy potential of economically developed countries in the transition to a "green" economy and ensuring energy efficiency in industrial sectors is analyzed. The essence of the concept of a "green" economy, which is based on the importance of introducing "green" technologies that allow the transition from a wasteful business model to an environmentally friendly one, is revealed. The main directions of development of the "green" economy, which has become widespread in most countries of the world, including Uzbekistan, are determined.

**Keywords:** green economy, energy efficiency, energy density, environmental change, climate change, green finance, banking and financial products in the field of green energy, green loans.

Hozirgi kunda jahon hamjamiyati amaliyotida hududlarni barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda ekologik tizimlarini o'zaro samarali uyg'unligida o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mamlakatlar rivojlanishi bevosita hududlar barqarorligiga bog'liq bo'lib, mazkur masalaning ijobiy jihatlari innovatsion iqtisodiyotni kengaytirish asosida resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni o'z ichiga qamrab olmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, soha davomiyligi va o'sishini ta'minlash resurslar mavjudligiga bog'liq. Bu esa, hududlarning barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy va ekologik tizimlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarining samarali amal qilishi bilan bog'liqdir[2; 72-b.].

"Yashil" iqtisodiyot modeliga o'tishda davlatxususiy sheriklik mexanizmidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan isbotlanmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiyaga oid loyihalarini amalga oshirish muammolari, birinchi navbatda, davlat mablag'larining ham, xususiy biznesning moliyaviy resurslari yetishmasligi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda davlat va xususiy sektor hamkorligi iqtisodiyotning "yashil" o'sishini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmini shakllantirmoqda. Mamlakatimizda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish, "Yashil" iqtisodiyotga o'tish loyihalarini moliyalashtiruvchi xalqaro moliyaviy institutlar va boshqa "donor" tashkilotlarning mablag'larini yo'naltirish[4; 2-b.] orqali loyihalarni moliyalashtirishga oid ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisi 8 milliarddan ziyodni tashkil etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyo aholisi 2050 yilda 9,7 milliardga, 2100 yilga borib esa 11 milliardga yetishi borasidagi prognozlar mavjud. Natijada esa resurslar hajmi tobora kamayib borayotgan bir vaqtda iqtisodiyotning bosh muammosi hisoblangan ehtiyojlarning muntazam o'sishda davom etayotganligi, ya'ni iqtisodiyotning bosh muammosi ko'lami tobora kengayib bormoqda. Bunga hamohang tarzda jahondagi iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolar doirasi ham kengayishda davom etmoqda.

Natijada boshqa tomondan oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ko'lami ham kengaymoqda. O'zbekistonda ham aholi sonining muntazam o'sib borayotganligi, suv tanqisligi bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligi sohasida muammoli holatlar yuzaga kelayotganligi, natijada go'sht, kartoshka, yog' mahsulotlari, shakar mahsulotlari kabilar importining muntazam oshib borayotganligi, energetik kollapslarga yo'l qo'ymaslik kabilar mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tobora jadallashtirishni talab qilmoqda.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi XX-asr oxirida paydo bo'lib, iqtisodiyotda inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Har qanday holatda ham iqtisodiy o'sishga emas, balki barqaror rivojlanishga e'tibor qaratadigan tendensiya. muhit. Ushbu tendensiya tarafdorlari iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan va uning bir qismi bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismi deb hisoblashadi. "Yashil" iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
- tabiiy kapitalni saqlash va boyitish; atrof-muhit ifloslanishini himoya qilish;
- kam uglerod chiqaruvchi iqtisodiyotga erishish;
- chiqindilarni qayta ishlash va mahsulotga aylantirish;
- ekotizim xizmatlari va biologik xilma xillikni saqlab qolish;
- daromad va bandlikni ta'minlash;
- iqtisodiyotda energiya samaradorligiga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini to'la istiyemol qilishga o'tish.

Yashil iqtisodiyotga ikki jihatdan qarash mumkin:

- birinchidan, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beruvchi va ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka zid kelmaydigan iqtisodiyot sifatida;
- ikkinchidan, ekologik maqsadlarga erishishga hissa qo'shadigan, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarning yangi shakllarini ta'minlay oladigan iqtisodiyot sifatida[6; 24-30-b.].

Binobarin, "yashil" texnologiyalar asosan "yashil" iqtisodiyotning asosi sifatida havo, suv, yerning ifloslanishiga qarshi kurashish, qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish, energiya samaradorligi, zararli chiqindilarni kamaytirish, chiqindilarni boshqarish tizimi, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish kabi sohalarda rivojlantirilmoqda[4; 1704-1713-b.].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga tayangan xolda e'tirof etish mumkinki, aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarining quyidagilari hozirda muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda:

- ekotizimlarni saqlash va samarali boshqarish;
- energetikani qayta tiklanadigan manbalardan foydalanishga o'tkazish;
- uy-joy kommunal xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda energiya samaradorligini oshirish;
- transportda ekologik toza texnologiyalardan foydalanish;
- havo va suv resurslarini boshqarish, ularni tozalash;
- chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- organik dehqonchilik va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi;

- yangi turistik yo'nalishlarni, shu jumladan ekoturizmni rivojlantirish.

Tahlil va natijalar. Isrofgarchilikka asoslangan biznes modelidan voz kechish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish xo'jalik yurituvchi subyektlarning ekologik xatti-harakatlarini rag'batlantiruvchi yangi iqtisodiy qoidalarni joriy etishni talab qiladi. Xususiy sektor "yashil" texnologiyalarga asoslangan loyihalarga katta qiziqish bildirmoqda, chunki bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va kelajakda raqobatbardosh ustunlikni belgilaydi. Davlat o'z funksiyalarini amalga oshirar ekan, resurslardan oqilona foydalanish va fuqarolarning hayot sifatini oshirishdan ham manfaatdor.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yuqori bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini teng taqsimlash imkonini beruvchi yashil o'sish modeliga asoslanadi. Tabiat bilan minimal o'zaro ta'sirga ega bo'lgan daromad, ya'ni tabiiy resurslarni qaytarib bo'lmaydigan tarzda yo'q qilishni kamaytirish. Yashil o'sish konsepsiyasining asosiy g'oyasi iqtisodiy rivojlanish maqsadlari ekologik maqsadlarga muvofiq bo'lishi kerakligiga asoslanadi[3 ; 70-74-b.]. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklikning "yashil" iqtisodiyot modeli deganda "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga o'tish jarayonini jadallashtirish imkonini beruvchi davlat va xususiy sektor subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi tushunilishi kerak[1; 38-43-b.].

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish borasida quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin:

- Energiya islohotini jadallashtirish, bunda energiyadan tejab foydalanishga rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish lozim. Milliy iqtisodiyotda energiya sarfi boshqa davlatlardan ikki barobar yuqori sharoitida tezkor amortizatsiyaga ruxsat berish maqsadga muvofiq.

- Energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida "yashil energiya" bank moliya mahsullarini joriy etish orqali xususiy investorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, natijada investorlarni loyihalarga jalb etish ko'lamini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga DXSH loyihalarini moliyalashtirishda yangi va arzon moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini oshiradi.

- Texnologiyalarning muntazam yangilanib borishi bir tomondan samaradorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan energiya sarfini kamaytiradi. Bu borada Singapurning texnologik va yashil taraqqiyoti har tomonlama andaza olishga arzigulik.

- Suvdan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi dastaklardan samarali foydalanish lozim.

- Ijtimoiy soha obyektlarining lokal isitish tizimlarini, issiqxona va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini, sement ishlab chiqaruvchi korxonalarini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish, davlat-xususiy sheriklik asosida ko'mir kogeneratsion texnologiyalarini joriy etish orqali markazlashgan issiqlik energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish oqibatlarini hisobga olinishi lozim.

- Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda byudjet mablag'lari sarflanishi har doim ham samarali emas, bu sohani bozor prinsiplariga o'tkazish lozim.

- Moliyalashtirishning yashil instrumentlarini faol joriy etish uchun ham an'anaviy bozorni sog'lom raqobat asosida rivojlantirish lozim.

### **Xulosa va takliflar.**

Yashil iqtisodiyotning oqibat natijasi – qashshoqlikka barham berish, tenglikka erishish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirish hisoblanadi. Rivojlangan mamalkatlar “yashil” iqtisodiyotga o‘tish – sanoati rivojlangan mamlakatlarda iste‘mol va ishlab chiqarish modellarini o‘zgartirish, shuningdek, qashshoq iqtisodiyotiga qarshi kurashni anglatishi kerak, deb hisoblaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, resurslar va mablag‘larni raqobatbardosh texnologiyalarning ustuvor innovatsion loyihalariga jamlash, iqtisodiy o‘sishning an‘anaviy modelidan “yashil”ga o‘tishni aniq tushungan holda, yetarlicha muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritayotgan Yevropa Ittifoqi tajribasini o‘rganish muhim. Barqaror rivojlanishga o‘tish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish davrida o‘zgartirish va harakatlanish mexanizmlarini tahlil qilish Yevropa tajribasining mamlakatimiz uchun ayniqsa ahamiyatli bo‘lgan tomonlarini aniqlashga imkon beradi.

Yuqorudagilar shuningdek, soha olimlari va tadqiqotchilari fikrlari asosida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarida quyidagi takliflarni aytish mumkin:

- Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
- Milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;
- Milliy iqtisodiyot, xususan sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta‘minlash;
- Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;
- Barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;
- “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan aholi qatlamlarini va ularning yashash joylarini qo‘llab-quvvatlash;
- “Yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;
- Moliyalashtirish oqimlarini tashqi va ichki “yashil” turlarini ko‘paytirish.

Shuni aytish kerakki, har bir mamlakat o‘z iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘z “yashil” iqtisodiyotini yaratadi, chunki hozirgacha universal “yashil” iqtisodiyot modeli mavjud emas. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish sharoitida “yashil” iqtisodiyotning o‘rnini yuqori baholash mumkin. Chunki, O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish imkoniyatlari katta ekanligi, tabiiy resurslarga boyligi, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish va shu bilan birga cheksiz quyosh energiya manbai borligini aytish mumkin

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гассий В.В. Роль государственно-частного партнерства в обеспечении «зеленого» роста региональной экономики // Горизонты экономики. 2015. №5 (24). С. 38–43.
2. Муминова Э.А. Яшил иқтисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида // Экономика и финансы (Узбекистан). 2023. №1 (161). URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-i-tisodiyot-bar-aror-rivozhlanish-mehanizmi-sifatida>

3. Похвощев В.А, Лукина А.В. «Зеленая экономика» в социальном развитии России // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2014. №1 (январь–март). С. 70–74.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

5. M.N.Dudin, E.E. Frolova, O.V. Protopopova, O. Mamedov, S.V. Odintsov. Study of innovative technologies in the energy industry: nontraditional and renewable energy sources // Entrepreneurship and Sustainability Issues 2019. 6(4). PP. 1704–1713. [https://doi.org/10.9770/jesi.2019.6.4\(11\)](https://doi.org/10.9770/jesi.2019.6.4(11))

6. S.Hoshen, N.Hasan, S.Hossain, A.A.Mamun, A.Mannan, A.A.Mamun Green Financing: An Emerging Form of Sustainable Development in Bangladesh // Journal of Business and Management (IOSR-JBM). 2017. №12. PP. 24–30. [www.iosrjournals.org](http://www.iosrjournals.org) DOI: 10.9790/487X-1912072430.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

